

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo'q.

2023- yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 6 808,7 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 1 890,7 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 27,8 %ini tashkil qildi. 2022- yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart oylarida)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Jami xizmatlar:	6 808,7	104,4	100,0
<i>shu jumladan, xizmat turlari bo'yicha:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	241,7	124,8	3,5
Moliyaviy xizmatlar	1 060,1	120,1	15,6
Transport xizmatlari	1 542,4	101,2	22,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 464,5</i>	<i>104,3</i>	<i>21,5</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	290,3	102,9	4,3


	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Savdo xizmatlari	2 236,0	104,2	32,8
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	203,5	104,9	3,0
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	142,3	96,3	2,1
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	165,8	107,3	2,4
Ijara xizmatlari	184,1	99,1	2,7
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	154,5	107,5	2,3
Shaxsiy xizmatlar	210,1	102,9	3,1
Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	126,7	56,7	1,9
Boshqa xizmatlar	251,2	102,6	3,7

Yuqori o‘shish aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (124,8 %), moliyaviy xizmatlar (120,1 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar (107,5 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (107,3 %) hamda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (104,9 %)da qayd etildi.

Aksincha, me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarda (56,7 %), ta‘lim sohasidagi xizmatlar (96,3 %) hamda ijara xizmatlari pasayish (99,1 %)da qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo‘lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘atlarining o‘shishi kuzatilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining tarkibi**
(2023- yil yanvar-mart oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2023- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi 32,8 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,6 %) hamda moliyaviy xizmatlarda (15,6 %) qayd etildi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarda uncha katta bo'lmagan o'sish kuzatilib ularning ulushi (4,3 %)ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush boshqa xizmatlarda (3,7 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (3,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, %da
(2023- yil yanvar-mart oylarida)




2023- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi viloyat bo'yicha umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i 72,0 %ini tashkil etdi (2022- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 72,2 %ga to'g'ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 18,8 %ni tashkil etdi (2022- yilning mos davrida ulgurji savdo xizmatlari ulushi 18,1 %ga to'g'ri kelgan).

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 9,2 %ni tashkil qildi (2022- yilning mos davrida avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 9,7 %ga to'g'ri kelgan).

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan, %da
(2023- yil yanvar-mart oylarida)**




Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yuqori Chirchiq (114,3 %), O'rta Chirchiq (114,1 %), Quyichirchiq (113,9 %), Chinoz (113,5 %) tumanlarida hamda Olmalik shahrida (114,1 %) qayd etildi.

Aksincha, ushbu davr mobaynida eng past o'sish sur'atlari Zangiota (101,1 %), Oqqo'g'on (100,5 %), Yangiyo'l (100,2 %) tumanlarida hamda Nurafshon shahrida (100,3 %) qayd etildi.

Qibray tumanida (80,3 %) esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan keskin pasayish qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da
(2023- yil yanvar-mart oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (124,8 %), moliyaviy xizmatlar (120,1 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (107,5 %)da qayd etildi. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar ijara xizmatlari (99,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (96,3 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (56,7 %)da qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar (134,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (123,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (123,1 %)da yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar yashash va ovqatlanish xizmatlari (107,9 %), transport xizmatlari (107,6 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (107,2 %)da qayd etilgan.


**2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan
xizmatlar hajmi**

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yil yanvar- martga nisbatan %da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2022- yil yanvar- martga nisbatan %da</i>
Viloyat bo'yicha	6 808,7	104,4	100,0	2 269,3	102,5
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	203,2	100,3	3,0	3 742,5	97,7
Olmalik	514,9	114,1	7,6	3 618,1	108,7
Angren	453,7	106,4	6,7	2 533,4	103,9
Bekobod	339,1	110,4	5,0	3 314,6	108,1
Ohangaron	135,7	104,6	2,0	3 326,4	103,1
Chirchiq	551,0	104,2	8,1	3 270,2	102,2
Yangiyo'l	297,8	103,2	4,4	3 622,3	100,5
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	173,5	100,5	2,5	1 569,8	98,7
Ohangaron	113,2	113,5	1,7	1 034,6	111,3
Bekobod	215,9	111,0	3,2	1 320,6	109,1
Bo'stonliq	466,7	110,1	6,9	2 659,0	108,6
Bo'ka	187,2	102,7	2,7	1 408,3	100,9
Quyichirchiq	156,4	113,9	2,3	1 366,9	111,7
Zangiota	636,4	101,1	9,3	3 797,1	101,3
Yuqori Chirchiq	288,9	114,3	4,2	2 099,4	112,1
Qibray	525,0	80,3	7,7	3 031,0	80,2
Parkent	272,7	109,9	4,0	1 554,9	108,1
Piskent	107,1	103,5	1,6	1 050,7	105,3
O'rta Chirchiq	250,9	114,1	3,7	1 857,1	112,6
Chinoz	218,7	113,5	3,2	1 529,3	110,8
Yangiyo'l	319,5	100,2	4,7	1 619,2	97,7
Toshkent	381,2	105,7	5,5	1 971,6	102,9

2023- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Zangiota tumanida qayd etildi – (9,3 %) (2022- yilning mos davrida – 9,6 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkich Piskent tumanida – 1,6 % (2022- yilning mos davrida – 1,6 %) qayd etildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2269,3 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,5 %ni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘shish sur‘ati, %da



2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori ko‘rsatkichlar O‘rta Chirchiq (112,6 %), Yuqori Chirchiq (112,1 %), Quy i Chirchiq (111,7 %), Ohangar on (116,2 %) hamda Chinoz (110,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Nurafshon shahrida (97,7 %) hamda Oqqo‘rg‘on (98,7 %), Yangiyo‘l (97,7 %), Qibray (80,2 %) tumanlarida qayd etildi.

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm




Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar hajmi Zangiota tumanida – 3 797,1 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,3 %), Nurafshon shahrida – 3 742,5 ming so'mni (97,7 %) va Yangiyo'l shahrida – 3 622,3 ming so'mni (100,5 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng past xizmatlar ulushi Bekobod tumanida – 1 320,6 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,1 %), Piskent tumanida – 1 050,7 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,3 %) va Ohangaron tumanida – 1 034,6 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi, %da

(2023- yil yanvar-mart oylarida)



2023- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 70,5 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Oqqo'rg'on (87,9 %), Bo'ka (85,9 %) tumanlariga hamda Yangiyo'l shahriga (86,6 %) to'g'ri keldi.

Aksincha, eng past ulush Quyichirchiq (59,1 %), Bo'stonliq (55,4 %) tumanlarida hamda Nurafshon shahrida (48,3 %) kuzatildi.